

XORAZMDA ANUSHTEGINIYLAR SULOLASI VA HUKMDORLARI TARIXI

Abdullayeva Laylo Jasurbek qizi
Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodi
fanlar fakulteti 232-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmda hukmdorlik qilgan anushteginiylar sulolasi va bu sulola vakillarining davlatni yuksaltirishda qilgan ishlari, islohotlari, harbiy yurishlar, olib borgan urushlari haqidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Anushteginiylar davridagina xorazmshoh unvoni o'zining baland cho'qqisiga chiqib, mazkur sulolani o'z davrining eng buyuk va nufuzli saltanatiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: Anushteginiylar, mamuniylar, afrig'iylar, xorazmshoh, g'aznaviy, Sind, saljuqiylar, Oltintosh, Parvon, Jazira, Damashq, Ko'niya.

Kirish

Xorazm eli hukmdori – xorazmshoh unvoniga o'z vaqtida bir qator sulolalar mansub bo'lganlar. Jumladan, 305-995-yillarda Afrig'iylar, 995-1017-yillarda Ma'muniylar, 1017-1034-yillarda G'aznaviylar noibi bo'lmish Oltintosh avlodlari shular jumlasidandir. IX-XIII asrlar manbalarining deyarli barchasida Xorazm nafaqat Movarounnahr balki butun Musulmon Sharqining eng taraqqiy qilgan, shaharlari ko'p, dehqonchilik chorvachilik, hunarmandchilik gullab-yashnagan, va ubilan bog'liq savdo munosabatlari juda rivojlangan hududlardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi.¹

995-yilda Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi. Shu tariqa afrig'iylar sulolasi barham topib, ma'muniylar hukmronligi boshlandi. Ko'hna Urganch Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylandi. Qisqa davr ichida ma'muniylar Xorazmshohlar davlatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdilar. Mamlakat viloyat, shahar va qishloq (qal'a)larga ajratilib boshqarildi.

¹A.S. Sagdullayev O'zbekiston tarixi 1-qism // Fan nashriyoti Toshkent-2018 332-333 b

²A.Muhammadjonov O'zbekiston tarixi// "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent-2017 60-61 b

³A.S.Sagdullayev O'zbekiston tarixi 1-qism // Fan nashriyoti Toshkent-2018 333 b

Ma'muniylar davrida Xorazmda " Ma'mun akademiyasi " nomi bilan dong taratgan ilmiy markaz tashkil qilinadi. Akademiyaga Abul Abbas Ma'mun (1009-1017-yillar) o'z hukmronligi davrida asos soladi. U ilm-fan, madaniyat vakillariga homiylik qiladi. Keyinchalik Xorazm 1017-yilda g'aznaviylar tomonidan bosib olinadi. G'aznaviylardan so'ng Xorazmda saljuqiylar o'z hukmdorliklarini o'rnatadi.

Adabiyotlar tahlili:

Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlati tarixiga oid bir qator tarixiy manbalar mavjud bo'lib, ular orasida quyidagilar o'z ko'lamiga ko'ra alohida o'rin egallaydi. Ibn al Asirning (1160-1234) «Al-komil fi-t-tarix» («Mufasssal tarix»), Rashididdin Fayzulloh al-Hamadoniyning (1247-1318) jahon tarixiga bag'ishlangan «Jome ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi»), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning Okatta ahamiyat kasb etuvchi «Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayot faoliyati»), Olovuddin Otamalik Juvayniyning (1226-1283) «Tarixi Jahonkushoy» («Jahongir tarixi»), Hamidulloh Qazviniyning (1281-yilda tug'ulgan) «Tarixi go'zida» («Saylangan tarix»), Abul Fidoning (1273-1257) «Muxtasar tarix al-bashar» («Bashariyat qisqacha tarixi»), Sharofuddin Abdulloh Vassofning «Tarixi Vassof», Minhojiddin Juzjoniyning «Taboqati Nosiriy» («Nosirga atalgan tabaqalar») asarlari shular jumlasiga kiradi. Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlati tarixi XX asr tarixshunosligida ham chuqur o'rganilganligini ta'kidlash lozim. Rus olimlaridan V.V.Bartold, S.P.Tolstov, A.Y.Yakubovskiy, S.Volin va boshqalar yuqorida ta'kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e'tibor bergan holda o'z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib berganlar. Shubhasiz, xorazmshohlar tarixi xususidagi fundamental asar bu sharqshunos olim Z.Bunyodov qalamiga mansub «Anushtagin xorazmshohlar davlati» kitobi hisoblanadi. Muallif o'z asarida xorazmshohlar davlatining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, madaniyat masalalarini mukammal tarzda yoritib beradi.³

Tahlil va natijalar:

Saljuqiylar hukmdori Malikshoh 1097-yilda o'z ma'murlaridan Anushteginni Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Shu tariqa Xorazmda " anushteginiylar " sulolasi hukmronligi boshlanadi. Xorazmda Anushtegin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097–1127) noiblik qiladi. Garchi u "xorazmshoh" unvonini tiklab, bunday nom bilan ulug'lansa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibiligicha qolgan edi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o'g'li Otsiz (1127–1156) nomi bilan bog'liqdir. Dastavval Otsiz turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. Otsizning siyosatini uning vorislari Elarlon (1156–1172), Sultonshoh Mahmud (1172) va Takash (1172–1200) davom

ettiradilar. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153-yilda Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar. Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib chiqadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi.

Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187–1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi. 1194-yilda esa saljuqiylar sultoni To'g'ulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi. Davlat hududining kengayishi. Takashdan so'ng uning o'g'li Alovuddin Muhammad (1200–1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. 1206-yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qaramligidan ozod etishga kirishildi. 1210-yilda Talos vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tarixi XII asr boshida Xorazm keng maydonni egallagan ulkan davlatga aylanadi. Alovuddin Muhammaddan so'ng taxtga Jaloliddin Manguberdi o'tiradi. Muxammad xorazmshoh Kaspiy dengizidagi Ashura orolida o'g'li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220-yilning dekabrda vafot etadi.⁴ Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231-yillar) o'z hukmronligi davrida mo'g'ullar hukmdori Chingizxonga (1155-1127-yillar) qarshi kurash olib boradi. Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan ilk g'alabasi 1221-yil Parvon dashtida sodir bo'ladi. Ular o'rtasidagi yirik janglardan biri 1221-yilning 25-noyabrda Sind (Hind) daryosi bo'yida bo'lib o'tadi. Manguberdi ko'p janglarda g'olib bo'lsada lashkarboshilari, yaqin insonlari tomonidan ko'p xiyonatlarga uchraydi. Hindiston, Iroq hududlariga borib o'ziga kuch to'plab ittifoqchilar qidiradi. Biroq Jaloliddin Manguberdi 1231-yilning avgustida Ko'niya, Jazira, Misr, Damashqning birlashgan qo'shini va mo'g'ullar qo'shinidan qaqshatqich zarbaga uchrab Kurdiston tog'larida chekinadi va o'sha yerda qaroqchi kurdlar qo'lga tushib fojiali ravishda halok bo'ladi. Shu tariqa eng so'nggi anushteginiylar hukmdori va eng so'nggi xorazmshoh 33 yoshida halok bo'ldi.

Mustaqillik yillarida anushteginiylar sulolasiga bag'ishlangan An-Nasaviyning mashhur asari va tarixchi olim Z. Bunyodovning kitoblari nashr etildi. 1998-yilda Jaloliddin Manguberding 800 yilligi keng nishonlandi va 200-yil 30-avgustda maxsus ordeni tasdiqlandi.⁵

Xulosa:

Uzoq asrlar davomida Xorazm vohasini bir qancha sulolalar xorazmshoh unvonida boshqardilar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib mamlakat, mintaqa doirasida hukmronlik qilgan va bu bilan cheklanmasdan boshqaruvni saltanat darajasiga chiqargan sulola anushteginiylardir. Anushteginiylar davrida (1097-1231-yillar) mamlakat chegaralari nihoyatda kengayadi, xorazmshohlar davlatini juda ko'p davlatlar tan olib ular bilan alchilik aloqalarini o'rnatadi. XI-XIII asrlarda ilm-fan, san'at madaniyat taraqqiy etib, butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlar, fan arboblari, shoirlar

yetishib chiqadi. Xorazmshohlar xoh tashqi, xoh ichki siyosatda bo'lsin o'zlarining bor imkoniyatlarini afzalliklarini ro'yobga chiqarish shu mamlakatni, uning xalqini yuksaltirish uchun harakat qilganlar. Shuning uchun ham hukmdorlar horazmshohlar sifatida tarixda abadiy qoldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.S.Sagdullayev O'zbekiston tarixi 1-qism // " Fan " nashriyoti Toshkent 2018-yil 232-234-betlar
2. A.Muhammadjonov O'zbekiston tarixi // " Sharq " nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent 2017-yil 60-67-betlar
3. B.J.Eshov, A.A.Odilov O'zbekiston tarixi / / O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi Toshkent 2014-yil 317-318-betlar